
**ABDURAHMON JOMIY “XIRADNOMAI ISKANDARIY” VA ALISHER
NAVOIYNING “SADDI ISKANDARIY “ DOSTONLARIDAGI
HIKOYATLARNING QIYOSIY TAHLILI**

Xo‘janova Shoxista

Samarqand davlat universiteti Filologiya fakulteti

404 - guruh talabasi

Annotatsiya. Maqolada Jomiyning “Xiradnomai Iskandariy” va Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonlaridagi hikoyatlar bir-biriga qiyoslab o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: Jomiy, Navoiy, “Xamsa”, Iskandar, izdoshlik, an’ana, hikoyat, orif.

Аннотация. В статье сравниваются рассказы в «Хирадномай искандарий» Джамии и «Садди искандарий» Навои.

Ключевые слова: Джамии, Навои, «Хамса», Александр, последователь, традиция, рассказ, мудрец.

Abstract. The article compares the stories in Jami's Hiranomai Iskandariy and Navoi's Saddi Iskandariy.

Keywords: Jami, Navoi, "Khamsa", Alexander, follower, tradition, story, sage.

O‘rta asrlarda nazira bog‘lash, asarlardan tasirlanib o‘zining asarini yozish nafaqat she‘riyatda, she‘riy dostonlarda, shu qatori xamsachilik ananasida ham birmuncha ko‘p ko‘zga tashlanadi.

Xamsachilik an‘anasini boshlab bergan Nizomiy Ganjaviy va uning izdoshlari aynan fikrimizni dalillaydi. Nizomiy boshlab bergan an‘ana asosida yaratilgan Navoiyning “Xamsa” dostonida bevosita o‘zidan oldingi xamsanavislarning tasirini sezish mumkin. Ammo Navoiy o‘z qahramonlariga hammadan ham o‘zgacha yondashgan.

Ba‘zan esa Alisher Navoiy Abdurahmon Jomiyning “Haft avrang”idan namuna sifatida foydalangan degan xulosalar ham mavjuddirki, Jomiy va Navoiy o‘rtasidagi yaqin munosabatlar hech kimga sir emas.

Xususan, Navoiyning Naqshbandiya tariqatiga kirishida ham Jomiyning ta'siri kuchli bo'lgan. Ular o'rtasida nafaqat shogirdlik, do'stlik, balki ma'naviy - ruhiy jihatdan hammaslaklik ham mavjud edi.

Butun hayoti davomida Navoiyning ustoziga sodiqligi har jabhada sezilib turdi. Jomiy o'limidan so'ng yozilgan va unung xotirasiga bag'ishlangan "Xamsat ul-mutaxxayirin" asarida ham o'z aksini topgan. Ushbu asarda Navoiy ustozining adabiy jarayondagi o'rni naqadar ulug' ekanligini ta'kidlab o'tadi. Tasavvufiy asarlar mutolasini undan o'rganganligini yozadi. Aynan shu jihatalr Navoiy va Jomiy o'rtasidagi ruhiy yaqinlikni ifoda etadi.

Navoiy "Xamsa" dostonining yaratilishida Jomiyning o'ziga xos o'rni borligini har bir masnaviy muqaddimasida ta'kidlab o'tadi. Navoiy "Saddi Iskandariy" dostonining bir necha bobida Navoiy o'zini Jomiy qatorida tasvirlab, dostonni muvaffaqiyatli tamomlash uchun ustozidan ruhiy-ma'naviy madad so'raydi. Hatto asarni yakunlab, Jomiyning doston haqidagi fikrini bilish uchun uning oldiga ham borganligini aytib o'tgan. Agar Navoiyning bu besh dostonini Jomiy dostonlariga qiyoslab o'qilsa, undan o'zgacha xulosa va zavq-u shavq olish mumkin.

Jomiyning "Xiradnomai Iskandariy" va Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonlarining qiyoslanishi bu ikki shoir o'rtasidagi yaqinlikni yanada oydinlashtiradi. Navoiy o'zining "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida Jomiyning "Xiradnoma"si unga Iskandar haqidagi dostonni yaratishdagi ta'sirini ta'kidlab o'tadi.

Yana chun "Saddi Iskandariy" asosin xotirim muhandisi solibdur,

Hazrati Mahdum "Xiradnoma"sidin ko'si islohu imdod chalibdur.

Jomiyning "Xiradnoma"si va Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonlari deyarli bir vaqtda tugatilgan. Ikkala doston ham mutaqorib vaznida yozilgan. Jomiyning "Xiradnoma"si ikkilik shaklida yozilgan. Iskandar haqidagi har bir hikoyatdan keyin hikoyatlar keladi. Bundan ko'rinib turibdiki, Jomiy o'z asariga

o‘zgacha yondashgan. Uning asari ko‘proq didaktik ahamiyatga ega bo‘lib, Iskandar hayoti qisqa, ko‘proq hikoyatlar berilgan. Iskandar timsolini pand-nasihat bilan bog‘lab bergan. Masalan:

Ba yak silk xoham chu gavhar kashid,
Xiradnoma ka-z Sikandar rasid.
Xiradnoma za-n ixtiyori man ast-
Ki afsonaxoni na kori man ast.
Z-asrori hikmat suxan rondan ast,
Beha z qissai ko‘han xondan ast.

Mazmuni: “Bir ipga men dur kabi Iskandar tomonidan yetkazilgan hikmatlar kitobini teraman. Men hikmatlar kitobini yozmoqchiman, zero, ertak aytish mening ishim emas, hikmatlar siridan so‘zlash qadimgi rivoyatlarni aytishdan yaxshiroqdir”.

Navoiy esa Qur‘ondagi Zulqarnaynga topshirilgan ya’juj-ma’jujlarga qarshi devor qurishdek esxatologik vazifa haqidagi parchaga ishora qiladi¹.

Boshqa dostonlarda Flipp o‘limidan so‘ng taxtga chiqqan Iskandar taxt merosxo‘ri sifatida tasvirlanadi. Jomiy dostonida esa bu xalq irodasidir. U otasi vafotidan keyin taxtni egallashdan bosh tortib, o‘zini oddiy xalq bilan barobar ko‘radi. Ammo xalq bunga rozi bo‘lmaydi va uni taxtga o‘tirishga majbur qiladi. Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy”da ham ayna shu epizod asosida asar syujetini kengaytirgan.

Bu ikki asarni tahlil qilish o‘ziga yarasha murakkablikni keltirib chiqaradi, albatta. Chunki ikkala buyuk falsafiy shoirlarning asarga qanday falsafiy g‘oya singdirganligini tushunish uchun u buyuk zotlar bilan hamsuhbatlikda, ular bilan bir davrda yashash kerak edi, balki. Jomiy va Navoiy bu ikki dostonini bir-birlaridan tasirlangan holda, bir-biridan ilhom olib yozgan bo‘lsa-da, ikkala asarning kompozitsion tuzilishi unchalik bir-birini takrorlamaydi. Navoiy dostonida asar

¹ Mark Taunt. Navoiy va Jomiy “ So‘nggi Temuriylar davri madaniyati: nazira amalyotini Alisher Navoiyning “Xamsa “ asari misolida o‘rganish nomli tadqiqoti. Ingliz tilidan Zulxumor Mirzayeva tarjimasi.

ko‘pincha Iskandar timsoli orqali adolatli shoh qanday bo‘lishi kerakligi ochib berishga qaratilgan bo‘lsa, Jomiy dostonida Iskandar bir pand-nasihati aytuvchi, o‘g‘it beruvchi donishmand sifatida gavdalanadi. Bu gaplarimizni isboti sifatida asar boshlanishiga nazar tashlasak kifoya. Dostonning ko‘pchilik baytlari, hikmatli so‘zlar, o‘tkir aforizmlar bo‘lib jaranglaydi.

Asardagi har bir bobni o‘qir ekansiz bir o‘g‘it tinglayotganday bo‘lasiz. Asar boshlanishidan to tugaguniga qadar boshdan oyoq o‘quvchiga nasihat qiladi, hikmat aytadi. Buning isboti sifatida asarning ana shunday o‘rinlaridan mulohaza yuritimiz. Asar boshlanishi ham “Aziz farzand qulog‘ini pand gavhari ila band qilmoq” deb boshlanadi:

Ey jigargo‘sham, gavhar farzandim,
Quloq os senga nasihatim-pandim.
Sadafdek quloq bo‘l, eshitib o‘ltir,
Qulog‘ingga quyay men gavhar-u dur.
Pandu nasihatim qulog‘ingga ol,
Barini bilib ol-da so‘ngra ishga sol.
Quloqdan dilingga gar kirmasa nur,
Sichqon kovagidan ne farqi bo‘lur.
Bilim bo‘lsa, ishga bo‘lmasa yaroq,
Undan bilimsizlik yuz bor yaxshiroq.²

Jomiy ushbu asarida so‘z gavharini dur kabi bir ipga shunchalik mahorat bilan terganki, undagi izchillik hech qachon buzilmaydi. Yuqoridagi jumladan ko‘rayapmizki, Jomiy har bir nasihatidan keyin bir hikmati bilan misol keltirmoqda. Asar “Ey jigargo‘sham”, “Gavhar farzandim” undalmalari bilan boshlangani ham

² SH.Shomammedov. Abdurahmon Jomiy “ Iskandar Xiradnomasi” G‘ofur G‘ulom nomidagi Adabiyoti va san‘ati nashryoti. 1978-yil (tarjima)

bejiz emas, shoir o‘zining asarini biz avlodlarga hech qanday o‘zgarishsiz yetib kelishiga, asarini biz kabi farzandlari o‘qishiga ishonchi komil bo‘lganligidan darak beradi. Ana shu misollar nasihatni o‘quvchi ongiga tezroq yetib borishiga yordam beradi.

Navoiy esa Dehlaviy an‘anasini rivojlantirgan. Birinchi bob- Iskandar hayotidan, ikkinchi bob- muayyan ahloqiy-ijtimoiy mavzudagi mulohazalari, uchinchi bob- ibratli hikoyat, to‘rtinchi bob- Iskandar va bir donishmandning savol-javobi shaklida to‘rt bobdan iborat yaxlit kompozitsiya tuzilgan. Asar boshlanmasi quydagicha:

Xudoyo, musallam xudoliq sanga,
Birov shahki, da’bi gadoliq sanga.
Xudovandu bemislu monandsen,
Xudovandlarga xudovandsen.
Zabardastlar zerdasting sening,
Biyiklar kelib borcha pasting sening.
Sanki ko‘rguzub mavj daryoyi jud,
Sen aylab ayon korgohi vujud.³

Ushbu hamd bobida Xudoning sifatlari haroratli misralarda vasf etiladi. Ko‘rinib turibdiki, asar boshlanmasi ikkala doston ham o‘zgacha tarzda berilgan. Ammo hikoyatlari haqida bu fikrni aytib bo‘lmaydi.

Ikkala doston hikoyatlari aynan bir biriga o‘xshamaydi. Ulardagi mavzu va g‘oya ham o‘zgacha yoritilgan. Ammo asarlardagi umumiy kelib chiqadigan xulosalar bir maqsadga qurilgandek tuyuladi. Jomiy o‘zining holatiga yarasha shunday hikoyatlar keltirganki, shoir o‘zida kechayotgan hissiyotlarni ochib berishga bel bog‘lagan. Masalan: “Kalxat va baqa“ hikoyatini keltiradi. Unda

³ Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” Badiiy adabiyot nashryoti. Toshkent, 1965.

qurbaqa hiylasiga aldanib baliqdan benasib qolgan Kalxat voqeasini keltirib, shoir o‘zining o‘sha paytdagi holatini tasvirlaydi:

Men ham o‘shal kalxat kabi benasib,
Dilimga xurramlik orzusin qilib.
So‘z fikrida dildan ketibon huzur,
Fikrim nuqsonidan so‘zimda qusur.
Baxtim qo‘ldan chiqqan, dilimda alam,
Na so‘zimda ravnaq, na xotirim jam.⁴

Ko‘rinib turibdiki, shoir o‘sha vaqtdagi ruhiy holatini majoziy ma’noda ifodalab beryapti. Navoiyning ham hikoyatlari har biri bir o‘git berishga qaratilgan. Shoir munosib joyda kerakli hikoyatni mohirlik bilan terib borgan. Ammo ikkala doston hikoyatlarida shunday farq borki, Navoiy o‘z hikoyatlarida yetkazmoqchi bo‘lgan o‘gitarini ma’lum bir shaxslar timsoli orqali ochib berishga harakat qilgan bo‘lsa, Jomiyda tasvir usuli boshqacharoq kechadi, ya’ni Jomiy hikoyatlarida nafaqat shaxslarning timsolidan foydalanib misol keltiriladi, balki hayvonlar va qushlarning timsolidan unumli foydalanib o‘quvchiga o‘z so‘zini majoziy ma’noda yetkazib bera olgan. Bu usul shoirning aytmoqchi bo‘lgan fikrini yanada oydinlashtirishga, tushunishni yengillashtirishga olib kelgan.

Navoiy va Jomiy hikoyatlarining mavzu-mundariyasi bir-biriga o‘xshamasa-da, yetkazmoqchi bo‘lgan fikrlar bir biriga o‘xshab ketadi. Masalan: Navoiy “Mashriqda ganj topgan kishi” hikoyatini keltirib, inson o‘ziga berilgan narsalarga qanoat qilmay, undan ortig‘iga erishaman deb boshiga kulfatni o‘zi yetkazishi haqida shunday yozadi:

Birov topdi Mashriqda ganji shigarf,
Yozig‘lig‘ eshigida bu turfa harf,

⁴ SH.Shomuhammedov. Abdurahmon Jomiy “ Iskandar Xiradnomasi” G‘ofur G‘ulom nomidagi Adabiyoti va san‘ati nashryoti. 1978-yil (tarjima)

Ki: "Har kimki bu ganjni topti jazm,
Agar qilsa Mag'rib diyorig'a azm,
Falon yerda mundun ulug' ganj erur,
Anga kim qadam urdi, poranj erur".
O'qig'och uni tomei hamkor,
Dedi: "Ikkisidin bo'lay komgor".
Munga – "himmat" oti qo'yib fikrati,
Ravon qildi Mag'rib sori himmati.
Necha yil qilib qat' daryou dasht,
Bo'lub anga yuz ming balo sarguzasht,
Yetib, istagan yerni topgan mahal,
Boshiga yetishdi sarosar ajal.⁵

Navoiy hikoyatlarida yetkazilmoqchi bo'lgan fikr hech qanday to'siqlarsiz to'g'ridan to'g'ri tushiniladi. Chunki Navoiy tili shunday tarjimonlarsiz ham tushunsa bo'ladigan tildir. Bunga sabab turkiy tilda ijod qilganligi emas, albatta. Jomiy asarida ham yuqorida keltirilgan hikoyatga yaqin ma'no kelib chiqadigan talqin bor. Bu "Katta nonni yeb turib, "nonim kichik ishtaham katta", deb yig'lagan bola" hikoyatidir. Unda ham insonlarning boriga qanoat qilmaslik, nafsini jilovlay olmaslik kabi xususiyati ochib berilgan.

Bog'dodda borardi ziyrak bir kishi,
Bir bola duch keldi- dunyoning ishi.
Yuzi to'lin oydan o'tardi chandon,
Qo'lida oydan ham kattaroq bir non.
Nonni tishlab yerdi va yig'lar erdi,
Ziyrak unga: "Nechun yig'larsen?" – dedi.
Dedi: "Och bolamen, ishtaham karnay,

⁵ Alisher Navoiy. "Xamsa" – "Saddi Iskandariy" uchinchi tom, O'zbekiston Fanlar Akademiyasi.

Yig‘layman qorninga tadbir topolmay.
Ishtaham katta-yu, kichikdir nonim,
Qanday to‘yaman deb qiynalar jonim.
Non tez tugar deya bo‘laman xunob,
Achchiq-achchiq yig‘lab, chekaman azob.
Kelurman bosh egik, rangim za‘faron,
Na qorin to‘q bo‘lar, na qo‘limda non”.⁶

Xulosa qilib aytganda, ikkala shoir asarlaridagi hikoyatlarni birgina bu hikoyat bilan emas, balki bir qancha hikoyatlarni qiyosiy tahlil qilish mumkin. Bu tahlil esa ijodkor tasvir usulining nozik qirralarini, o‘ziga xos so‘z aytish mahoratini, faqat ijodkorning o‘ziga xos individualligini ko‘rsatib beradi. Shunday ekan biz tahlilga tortgan Jomiyning “Xiradnomai Iskandariy” va Navoiyning “Saddi Iskandariy” asarlari qiyosiy jihatdan o‘rganilishi ikkala shoirning so‘z yaratish mahoratining o‘zgachaligi siz va bizga bir muncha oydinlashganday bo‘ladi. Bu ikki buyuk ijodkorlarning asarlarini yanada keng jabhada tahlilga tortishga undaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Mark Taunt. Navoiy va Jomiy “ So‘nggi Temuriylar davri madaniyati: nazira amalyotini Alisher Navoiyning ”Xamsa “ asari misolida o‘rganish nomli tadqiqoti. Ingliz tilidan Zulxumor Mirzayeva tarjimasida.
2. SH.Shomammedov. Abdurahmon Jomiy “ Iskandar Xiradnomasi” G‘ofur G‘ulom nomidagi Adabiyoti va san‘ati nashryoti. 1978-yil (tarjima)
3. Alisher Navoiy “ Saddi Iskandariy” Badiiy adabiyot nashryoti. Toshkent, 1965.
4. Alisher Navoiy. “Xamsa” – “Saddi Iskandariy” uchinchi tom, O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi.
5. Xamsachilik an'anasi: "javobiya" yoki "nazirago‘ylik"ning o‘ziga xosliklari. M. Muhiddinov, Naqshbandiya jurnali, 2016. 14-19.

⁶ SH.Shomammedov. Abdurahmon Jomiy “ Iskandar Xiradnomasi” G‘ofur G‘ulom nomidagi Adabiyoti va san‘ati nashryoti. 1978-yil (tarjima)

6. Navoiy asarlaridagi axloqiy masalalarning tarbiyaviy ahamiyati. M. Mushiddinov, xalqaro "So‘z san'ati" jurnali, 2020. 41-47.
7. Xamsachilikda javobiya an'analari haqida ayrim mulohazalar. M. Muhiddinov, O‘zbek adabiyotshunosligi fani shakllanishi va taraqqiyotida Samarqand ilmiy... 2017. 76-81.